

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O‘ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO‘RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o‘g‘li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O‘ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG‘ONIY TA‘LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN‘IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA‘SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> “O‘RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA‘RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA‘RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI”	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNYIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

BALANCE OF RIGHTS AND OPPORTUNITIES: UZBEKISTAN'S PATH TOWARD GENDER JUST

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon oglu

Fergana State University

student of jurisprudence

Scientific advisor: Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Dadaboyeva Jumagul Anvarovna

Abstract. This article discusses the reforms carried out in the Republic of Uzbekistan to ensure gender equality, their legal foundations, and practical outcomes. It analyzes the content of gender policy based on the Law "On Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men," the Law "On Protection of Women from Harassment and Violence," and the Family Code. The paper examines measures taken to create equal opportunities for women and men in political, economic, and social spheres, as well as the integration of the gender approach into public administration. Issues such as increasing women's political participation, expanding their representation in leadership positions, ensuring equality in family relations, and reducing gender stereotypes are scientifically and practically substantiated. In conclusion, it is emphasized that gender equality in Uzbekistan is viewed not only as a legal but also as a moral and ethical value, serving as an essential factor in the country's sustainable development and the realization of the "New Uzbekistan" concept.

Keywords: gender equality, women's rights, equal opportunities, state policy, Family Code, UN Sustainable Development Goals, New Uzbekistan.

HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

E-mail: muhammadrajabh18@gmail.com

Ilmiy rahbar: Yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Dadaboyeva Jumagul Anvarovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning huquqiy asoslari va amaliy natijalari yoritilgan. Maqolada "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda Oila kodeksi normalari asosida gender siyosatining mazmuni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, davlat boshqaruvi tizimida gender yondashuvni tatbiq etish bo'yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar tahlil etilgan. Ayollarning siyosiy faolligini oshirish, rahbarlik lavozimlarida ularning ulushini ko'paytirish, oilaviy munosabatlarda tenglikni ta'minlash, gender stereotiplarni kamaytirish kabi masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Xulosa o'rnida, gender tengligi mamlakatda nafaqat huquqiy, balki ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida qaralib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va "Yangi O'zbekiston" g'oyalarini ro'yobga chiqarishda muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, teng imkoniyatlar, davlat siyosati, Oila kodeksi, BMT maqsadlari, Yangi O'zbekiston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N46>

Gender tenglikni ta'minlash masalasi dunyo bo'ylab muhim ahamiyatga ega. BMT tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, xususan, 2015-yil qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyada bu o'z ifodasini topgan. BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda "O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari" qabul qilingan. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad – "Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" dir. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa choralarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek, davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas'ul.

2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy qonunchiligimizda ham o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.[1] Qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda "gender" tushunchasiga ta'rif berildi. Unga ko'ra, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat[2] hisoblanadi.

"Gender" tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha "genus", ya'ni "jins" ma'nosini anglatadi.[3] Agarda, biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender – bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi o'rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Qonunning 4-moddasiga muvofiq, xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplariga qonuniylik, demokratizm, teng huquqlilik, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va shaffoflik kiradi. Bu prinsiplar davlat siyosatining barcha yo'nalishlarida gender tenglikni ta'minlash, jamiyatda adolatli muhitni shakllantirish hamda har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiladi. Masalan, demokratizm prinsipi erkak va ayollarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotda teng ishtirok etish huquqini, ochiqlik va shaffoflik prinsipi esa bu jarayonlarda oshkoralikni ta'minlaydi.

Gender-huquqiy ekspertizani o'tkazish vakolatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlarga yuklatilgan. Har bir idora o'z faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini tahlil qiladi hamda gender-huquqiy ekspertiza xulosasini tayyorlaydi. Bu jarayon orqali hujjatlarni qabul qilish oqibatlari baholanadi, ularning qo'llanilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamsitish xususiyatiga ega xavflar aniqlanadi va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu tariqa, qonunlar ishlab chiqishdan tortib ularni amaliyotga joriy etishgacha bo'lgan bosqichlarda gender tenglik prinsiplari doimo nazarda tutiladi.

Mazkur qonunning yana bir muhim jihati shundaki, unda gender statistikasi yuritish tartibi ham belgilangan. Davlat statistika organlari jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning ahvolini aks ettiradigan statistik axborotni yig'ish, unga ishlov berish,

saqlash, tahlil qilish va e'lon qilish bilan shug'ullanadi. Bunday ma'lumotlar asosida mamlakatda gender tengligiga oid muammolarni chuqur o'rganish, mavjud tafovutlarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa davlat siyosatini yanada maqsadli va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qonun shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini, bu yo'nalishdagi boshqaruv mexanizmlarini ham belgilab bergan. Ushbu yo'nalishda muvofiqlashtiruvchi organ sifatida O'zbekiston Respublikasi gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya faoliyat yuritadi. Mazkur komissiyaning asosiy vazifasi – xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, milliy harakatlar rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, hamda bu boradagi xalqaro standartlarga rioya etilishini ta'minlashdir. Komissiya har yili Oliy Majlisga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot taqdim etadi. Bu tizim davlat boshqaruvi organlari faoliyatida shaffoflik va javobgarlikni oshiradi. Qonunda insonlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda gender tenglikni saqlashga oid normalar ham belgilangan. Masalan, davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, lavozimlar bo'yicha kadrlar zaxirasini shakllantirishda jinsiy tenglikni ta'minlash, zarur hollarda vaqtinchalik maxsus choralar qo'llashga ruxsat berilishi nazarda tutilgan. Bunday choralar, masalan, rahbarlik lavozimlariga ayollar ulushini oshirish, ularning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirish kabi maqsadlarda qo'llanilishi mumkin.

Siyosiy sohada esa xotin-qizlarning faol ishtirokini kengaytirish uchun muhim chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga muvofiq, siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga ko'rsatiladigan nomzodlarning kamida o'ttiz foizi ayollardan iborat bo'lishi shart. Bu norma xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash prinsiplariga to'liq mos keladi hamda ularning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ayollar ham siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkaklar bilan teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Iqtisodiy sohada ham qonun xotin-qizlar va erkaklar uchun teng sharoitlarni ta'minlashni belgilaydi. Davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari jamiyatning iqtisodiy resurslaridan teng foydalanish imkonini yaratishlari shart. Davlat esa o'z navbatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda, moliyaviy yordam va kreditlar ajratishda erkaklar va ayollar o'rtasida teng imkoniyatlarni kafolatlaydi. Bu iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunda ayrim holatlar jinsiy kamsitish sifatida qaralmasligi ham alohida qayd etilgan. Masalan, bola tug'ish, ona suti bilan oziqlantirish, muddatli harbiy xizmatga chaqirish, gender siyosatini amalga oshirishda vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish, xotin-qizlar va erkaklarning mehnatini muhofaza qilishda reproduktiv salomatlikni saqlash kabi holatlar kamsitish hisoblanmaydi. Chunki bu holatlar biologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan asoslangan farqlardir. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy majburiyatlari milliy qonunchilik tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Xususan, ayollar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash borasidagi xalqaro me'yorlar mamlakatimiz qonunchiligida mustahkam huquqiy asos sifatida o'z ifodasini topgan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun xalqaro huquqning ilg'or tamoyillariga tayanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar"[5] degan

norma mustahkamlab qo'yilgani ham ushbu sohada davlat siyosatining poydevorini tashkil etadi. Bu qonuniy asoslar mamlakatda gender siyosatini amalda tatbiq etish uchun mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, har bir viloyat, tuman va shahar hokimliklarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgan. Shuningdek, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi tizimlar orqali ayollarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish masalasi ham gender siyosatining ajralmas qismi sifatida ko'rilmogda. 2019-yilda qabul qilingan "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun jamiyatda ayollarning sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan eng muhim hujjatlardan biridir. Bu qonun orqali ayollar nafaqat jismoniy, balki ruhiy va iqtisodiy tazyiqlardan ham himoya qilinmogda. Shu bilan birga, qonun fuqarolarning, ayniqsa, erkaklarning gender masalalariga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qilmogda.

Xalqaro maydonda ham O'zbekiston gender tengligi sohasida faol ishtirok etmogda. Mamlakatimiz BMTning "Ayollar kamsitilishining barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risida"gi konvensiyasi (CEDAW), "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" hamda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" kabi hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Bu esa O'zbekistonning gender siyosati nafaqat milliy, balki global darajada ham tan olinganini ko'rsatadi.

Ayni paytda, O'zbekistonda ayollarning davlat boshqaruvidagi ulushi sezilarli darajada ortib bormogda. Parlamentdagi deputatlarning qariyb 32 foizini ayollar tashkil etmogda[4], bu esa Markaziy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Shuningdek, ayollar sud tizimida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, ilm-fan va ta'lim sohasida ham faoliyat yuritmogda. Bu holat davlatning gender siyosatini amalda muvaffaqiyatli amalga oshirayotganidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, gender tengligi masalasida hali bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ham mavjud. Ayrim joylarda ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga o'qitish, bandlikni oshirish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish zarur. Eng muhimi, jamiyatda gender stereotiplarini bartaraf etish, ya'ni ayolni faqatgina uy va oilaga bog'lab qo'yuvchi qarashlardan voz kechish muhimdir. Ayol va erkakning jamiyatdagi o'rni bir-birini to'ldiruvchi, teng hamkorlik asosida shakllanishi lozim.

Shunday ekan, gender tengligi — bu faqat huquqiy yoki siyosiy masala emas, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatdir. Agar jamiyatda adolat, teng imkoniyat va o'zaro hurmat tamoyillari ustuvor bo'lsa, bu mamlakatning barqaror rivojlanishiga, oilalarning mustahkamligiga va fuqarolarning baxtiyor hayot kechirishiga xizmat qiladi.

Demak, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar izchil davom etmogda. Bu jarayonning markazida inson qadri, ayol sha'ni, erkak mas'uliyati va o'zaro hurmat tamoyillari turadi. Bunday yondashuv esa jamiyatning har tomonlama yuksalishiga, "Yangi O'zbekiston"ning ma'naviy poydevori mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

"Xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasida tizimli tarzda yo'lga

qo'yilganligi belgilangan. Ushbu jarayonni muvofiqlashtirish va nazorat qilishda bir nechta asosiy davlat institutlari faoliyat yuritadi. Avvalo, bu boradagi umumiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'uldir. Vazirlar Mahkamasi gender siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi, tegishli qarorlar va davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi[2].

Shuningdek, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi mamlakat miqyosida gender tengligini ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Mazkur komissiya davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib, ayollarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish, ularning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Komissiya nafaqat siyosiy darajadagi tashabbuslarni ilgari suradi, balki joylardagi xotin-qizlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Hududlarda viloyat, tuman va shahar darajasida xotin-qizlar masalalari bo'yicha kengashlar va ishchi guruhlar tashkil etilgan bo'lib, ular Respublika komissiyasi bilan uzviy hamkorlikda ishlaydi. Bundan tashqari, gender tengligi sohasidagi davlat boshqaruvining yana bir muhim bo'g'ini — davlat organlarining o'z vakolatlari doirasidagi faoliyatidir. Har bir vazirlik, idora yoki muassasa o'z sohasida ayollar va erkaklar uchun teng sharoit yaratish, kamsitish holatlarining oldini olish, ish joylarida teng imkoniyatlar tizimini joriy etish bo'yicha ichki siyosat yuritadi. Masalan, Ta'lim, Bandlik, Sog'liqni saqlash, Ichki ishlar, Adliya vazirliklari o'z yo'nalishlari bo'yicha gender tengligi masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu tarzda, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashda davlat siyosati markazdan joylarga qadar izchil tizim asosida tashkil etilgan. Har bir bo'g'inning maqsadi — erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni amalda ta'minlash, jamiyatda adolat, hurmat va o'zaro ishonch muhitini yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasining Oila va Mehnat kodekslarida ham ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ifodalovchi qator qoidalarni ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Bundan tashqari, ushbu qonunda ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog'ligini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko'rish, mehnatni onalik bilan bog'lab qo'shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan ta'minlanadi, deb ko'rsatilgan (Oila kodeksi 4-modda)[6-123-bet].

Oila kodeksi jamiyatimizda oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim hujjatlardan biridir. Unda xotin-qizlarning oiladagi o'rni va huquqlari aniq belgilab qo'yilgan. Kodeksga ko'ra, ayollar nikoh tuzish, oila qurish va oilaviy hayotda erkaklar bilan teng huquqlarga egadirlar. Bu degani, ayollar o'z fikrini erkin bildirish, oilaviy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, farzand tarbiyasida teng mas'ul bo'lish huquqiga ega. Shuningdek, Oila kodeksi onalik va ota-onalik huquqlarini ham davlat darajasida himoya qiladi. Ya'ni, ona bo'lgan ayollar, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar huquqlari qonun bilan kafolatlanadi. Bu orqali davlat oilaning mustahkamligi va farzandlarning sog'lom, barkamol bo'lib ulg'ayishini ta'minlashga harakat qiladi.

Kodeksda ota-onalarning farzandlari oldidagi burchlari ham aniq yozilgan. Unga ko'ra, ota-onalar voyaga yetmagan, mehnat qobiliyatidan mahrum yoki yordamga muhtoj farzandlarini boqish, ularning ta'lim olishi va tarbiyasiga sharoit yaratishlari shart. Shu bilan birga, farzandlar ham ota-onalariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash, zarur paytda yordam berishlari lozim.

Umuman olganda, Oila kodeksi va "Xotin-qizlar hamda erkaklarga teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston jamiyatida inson huquqlarini ta'minlash, oila institutini mustahkamlash va gender tengligini qaror toptirish yo'lida muhim o'rin tutadi. Bu hujjatlar orqali davlat erkak va ayolning huquqiy jihatdan tengligini, ularning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi o'rni bir xil darajada e'tirof etilishini kafolatlaydi. Ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularning mehnat, ta'lim, siyosat va oilaviy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha huquqiy asoslar yaratilgan. Shuningdek, Oila kodeksi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, mas'uliyat va mehr-oqibatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Unda ota-onalarning farzandlar oldidagi burchlari, farzandlarning esa ota-onalar oldidagi majburiyatlari aniq belgilangan bo'lib, bu oila muhitida sog'lom axloqiy tamoyillarni shakllantirishga yordam beradi. Kodeks oilaning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy barqarorligini ta'minlashga, bolalarning sog'lom va barkamol avlod sifatida voyaga yetishiga asos bo'ladi.

Gender tengligi borasidagi qonun esa ayollar huquqlarini himoya qilish bilan birga, erkaklar uchun ham adolatli va muvozanatli ijtimoiy muhitni yaratadi. Bu orqali jamiyatda diskriminatsiyaga qarshi kurash kuchayadi, teng imkoniyatlar siyosati hayotga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, mazkur qonun xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqilgani O'zbekistonning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Saxipjamol JOLDASOVA, yuridik fanlari nomzodi. "Gender tenglik ta'minlanadi"
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender>
4. Kun.uz ma'lumotnomasi <https://kun.uz/48548464#!>
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
6. Inson huquqlari, Darslik. Toshkent-2021
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tadqiqotlar

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).